



Xitoy tili grammatikasida fe'l so'z turkumi hisob so'zlari ya'ni 动量补语 (Dòngliàng bǔyǔ) ning gapda qo'llanilishi.

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

R.M. Radjabova

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoy tilida ko'p qo'llaniladigan va gapga qo'shimcha ma'no ortiradigan 补语 (bǔyǔ) lar guruhiga kiruvchi 动量补语 (Dòngliàng bǔyǔ) ning gapda foydalanish qoidalari yoritilib berilgan. Maqolada 动量补语 (Dòngliàng bǔyǔ) ning xitoy tili grammatikasida qaysi o'rinlarda ishlatilishi va hu turkumga kiruvchi so'zlar haqida qisqacha tarif berilgan, misollar orqali yanada aniqlashtirilgan.

Kalit so'zlar: 动量补语 (Dòngliàng bǔyǔ), 次 Cì, 遍 biàn, 回 huí, 趟 tàng, 下 xià, 顿 dùn, 阵 zhèn, 场 chǎng, 番 fān.

KIRISH.

Xitoy tilida o'zbek tilida mavjud bo'lmagan xitoy tili grammatik komponentlari bor bular to'liqllovchilar deyiladi. Xitoy tilidagi to'liqllovchilarining o'zbek yoki ingliz tiliga anniq bir tarjimasi yo'q, uni biz to'ldiruvchi, fe'lli birikma, hol sifatida aytishimiz mumkin lekin shu o'rinda qo'llanishida ham biroz farq qiladi.

To'liqllovchi gapda asosan harakatning natija, daraja, yo'nalish, imkoniyat, holat, miqdor, maqsadini aniqlashtirib, to'ldirish uchun ishlatiladi. To'liqllovchilar gapning ma'nosini emas, balki, kesimning ma'nosini to'liqlab keladi. Grammatik xususiyatlari:

1. To'liqllovchilar har doim asosiy fe'ldan keyin keladi.
2. Asosan sifat, fe'l, miqdor-sanoq so'zlar va fe'lli birikmalar to'liqllovchi sifatida keladi.
3. Kopincha 得 tuzilmasi asosiy fe'l va to'liqllovchining o'rtasida keladi.
4. Odatda to'liqllovchi bilan anqlashtirilgan fe'l o'zi bilan to'ldiruvchini ham olib kelishi mumkin.¹

Harakatning necha marta sodir bo'lishini bildirishda xitoy tilida fe'ldan keyin harakat to'liqllovchilari ishlatiladi. Harakat to'liqllovchisi 动量补语 fe'lining hisob so'zi deb tushunsak ham bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metod.

Fe'l to'ldiruvchi bilan birga kelsa, to'liqllovchi to'ldiruvchidan keyin yoki to'ldiruvchidan oldin qo'llanilishi mumkin. To'ldiruvchi olmosh bo'lsa, to'liqllovchi odatda to'ldiruvchidan keyin keladi.

1. 动词+补语+宾语 bu xitoy tilida harakat to'liqllovchisi foydalanishining eng standart ko'rinishidan biridir.

Fe'l + to'liqllovchi + to'ldiruvchi

Xitoy tilida bu turdagi so'zlar ko'p emas, ulardan eng asosiylari quyidagilardir: “次, 遍, 回, 趟, 下, 顿, 阵, 场, 番”.

Keling quyida har biriga misollar tarzida ko'rib chiqamiz.

来北京以后我看过两次电影。Pekinga kelganimdan beri meni ikki marta kino ko'rdim.

老师让我每天念三遍课文。O'qtuvchim menga kuniga 3 marta matn o'qishimni so'radi.

¹ D.M. Djurayev, R.M. Radjabova “XITOIY TILINI O'QITISHDA TO'LIQLOVCHILARNING (补语) O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”, “Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi” 2023-4/4, 35-bet



玛丽已经来过两趟北京了。Meri Pekinga ikki marta kelib ketgan.
我们都找过两次李老师了。Biz Li o'qtuvchini 2 marta qidirib bo'ldik.
他去了三回长城。U Buyuk Xitoy devoriga 3 marta brogan.
刚才好像敲了十下几钟。Hozirgina qo'ng'iroq o'n marta chalingan o'xshadi.
昨天我又被老师批评了一顿。Kecha o'qtuvchi menga yana tanbeh berdi.
刮了一阵风Shamol esdi, 下了一阵雨。Bir muddat yomg'ir yog'di
老师又对我苦口婆心地讲了一番。O'qtuvchi yana men bilan jiddiy gaplashdi.
Har bitta so'zning ishlatilish holatini ko'rib chiqamiz:

- 阵 qisqa muddatli hodisalar bilan ishlatiladi.
- 场 ikki xil talaffuz qilinadi. "Cháng" kabi talaffuz qilinganda u hodisalar, tabiat hodisalari, harakatlar, hodisalar, holatlar va jarayonlar bilan qo'llaniladi.

下了场雨。Yomg'ir yog'di. 害了一场病。Biroz muddat kasal bo'ldi.

"Chǎng" kabi talaffuz qilinganda esa, ma'lum bir maqsadda ishlatiladigan katta joyda sodir bo'lgan voqealar bilan ishlatiladi. Masalan, teatr tomoshalari, drama, filmlar, sport tadbirlari.

打一场纸牌。Karta o'ynamoq. 一场歌剧。Opera.

- 顿ovqat, kaltaklash, urishish, tishlash uchun ishlatiladi.

我骂了他一顿。Men uni so'kdim.

- 番vaqt va kuch talab qiladigan harakatlar bilan ishlatiladi.

精心打扮一番。Ehtiyotkorlik bilan pardoz qilmoq.

- 回harakatning tez-tez bo'lib turishini ifodalaydi. 次kabi ishlatiladi.

"次、下、趟、遍"bularning hammasi harakatning necha marotaba qilinganligini ifodalab, "marta" deb tarjima qilinadi.

Ularning farqi nimada?

• 次eng ko'p qo'llaniladigan fe'l to'liqlovchisi, sodir bo'layotgan hodisalar sonini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan,我去过三次北京。Men Pekinga 3 marta borganman.

次 otlardan oldin ham qo'llaniladi, qayta sodir bo'lgan yoki rejalashtirilayotgan hodisalar uchun ham ishlatilishidi.

Masalan, 下一次(的)会议将在两年后举行。Keyingi yig'ilish ikki yildan keyin o'tkaziladi.

- 下odatda qisqa muddatli harakatlar uchun ishlatiladi, masalan, 他敲了两下门, 屋里没有人。

U eshikni ikki marta taqillatdi, lekin xonada hech kim yo'q edi.

"一下" qo'llanishi turg'un qo'llanish bo'lib, fe'ldan keyin qo'llanilsa, u ish-harakatning qisqa ekanligini yoki urinish ekanligini ko'rsatadigan fe'l birikmasidir.

他看了一下, 没看到什么。U bir qaradi va hech nimani ko'rmadi.

- 趟odatda borish va kelish harakati uchun ishlatiladi, ya'ni, "今天我去找了两趟校长, 都没找到。Bugun ikki marta direktorni topgani bordim, lekin topa olmadim." kabi. Bu yerda so'zlovchi ikki marta borib kelganligi haqidagi ma'lumot bo'lyapti va shu holatda 趟 ishlatilgan.

Bundan tashqari, 趟poezdlar harakati uchun ham ishlatilishi mumkin. Poyezd reyslarining borib kelishida hisob so'z sifatida ishlatiladi.

遍 harakatning boshidan oxirigacha bajarilishini bildirish uchun ishlatiladi, shuning uchun bu harakatning ob'ekti doimo ma'lum uzunlikda bo'ladi va ko'pincha matn va til bilan bog'liq bo'ladi, masalan, maqolalar, filmlar, musiqa, so'zlar va hokazo.



Masalan, 这个电影我看了三遍。

Men bu filmni uch marta ko'rganman.

我没听清楚，请你再说一遍。

Men buni tiniq eshitmadim, iltimos, yana qaytaring.

- Ot so'z turkumining fe'l hisob so'zlari sifatida ishlatilishi.

Ba'zi otlarni hisob so'z sifatida ishlatishimiz mumkin. 眼ko'z, 声ovoz kabilarni.

Masalan, 看一眼ko'z tashlamoq, 说一声bir og'iz gapirmoq.

2. 动词+代词+补语

Bu shakl huddi vaqt to'liqllovchisidek olmosh ishlatilganda, "fe'l+olmosh+to'liqllovchi" shaklida keladi.

他来找过你几回。咱们再去叫他一次。

你们提醒我一下儿。明天早上你喊我一声。

你怎么无缘无故踢人家一脚？你又瞪了我一眼。

Xulosa

Xitoy tili grammatikasida harakat to'liqllovchisi deb ataluvchi ushbu 动量补语 (Dòngliàng bǔyǔ) grammatik jihatdan muhim bo'lib, ularning to'g'ri ishlatilishi gaplarning ma'nosini aniq va ravshan qilishda yordam beradi. Ular nafaqat harakatni, balki uning natijasi va o'lchovini ham ko'rsatadi, bu esa nutqning samimiyligini oshiradi. Hisob so'zlari odatda fe'lning ortida keladi va harakatni yoki jarayonni aniqlab beradi. Shunday qilib, bu tushuncha Xitoy tilini o'rganishda muhim qism hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A practical chinese grammar for foreigners (revised edition) -北京：北京语言大学出版社·2008, (652 pages)
2. D.M. Djurayev, R.M. Radjabova "XITROY TILINI O'QITISHDA TO'LIQLOVCHILARNING (补语) O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI", "Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi" 2023-4/4, 35-bet
3. Jiang Liping. Standart course HSK3 -北京：北京语言大学出版社, 2009, (190 pages).
4. Сюй Цзиннин; [пер. с кит. К.В. Агеева]. — Москва: Издательство АСТ, 2021. — 480 с. — (Школа китайского языка).
5. Zhu Qingming, Modern Chinese Practical Grammar Analysis Second Edition Part 1, Tsinghua University Press, (246 pages).